

1-TOM, 10-SON
Qishloq xo'jalik mollarini asosiy gelmentoz kasalliklari

Yaxshieva Dilafruz Abdumo'minovna
Veterinar (tadqiqotchi-pedagog) magistr Samarqanda davlat Veterinariya
Meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filali

Annotatsiya: Yangi O'zbekiston davlatimiz aholisining sog'lom ovqatlanish konsepsiyasi va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish respublika veterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholini sifatli go'sht, sut, tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash Davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa bo'lib, ushbu vazifalar ijrosi davlatimiz va hukumatimizning doimiy e'tiboridadir. Ammo bir qator yuqumli va invazion kasalliklar ayniqsa, chorva mollarining gelmintoz kasalliklari ushbu vazifalarni bajarishda jiddiy to'siq hisoblanadi. Xususan, chorva mollarining fassiolyoz va exinokokkoz kasalliklari muhim epizootologik va epidimiologik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu kasalliklarga chalingan hayvonlarda "infeksiya davvozasi" yuzaga kelishi, chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatgichlari keskin pasayishi hisobiga katta iqtisodiy zarar yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: kasallik, qishloq, gelmit. tur

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning birinchi davri sayohatchi-tabiatchunos olim A.P.Fedchenkoning 1868-1871 yillarda boshlangan va Turkiston o'lkasi (O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istonning janubiy viloyatlarini qamrab olgan hudud)da olib borilgan, qo'ylardan yig'ib olingan gelmintlarni aniqlash natijasida quyidagi 8 tur gelmintlar aniqlangan:

1. *Trichuris ovis* (Abildg, 1795)
2. *Haemonchus contortus* (Rud. 1809)
3. *Dictyocaulus filaria* (Rud. 1809)
4. *Moniezia expansa* (Rud. 1810)
5. *Taenia hydatigena* Pallas, 1776
6. *Echinococcus granulosus* Batsch, 1786
7. *Fasciola hepatica* L, 1785
8. *Dicrocoelium lanceatum* stilles et Hassal, 1896 [52; 20-26-b].

Keyinchalik, K.I.Skryabin (1916) O'zbekistonning Sirdaryo viloyati va Qozog'istonning Aulieata shahrida qo'ylar orasida 21 turga mansub gelmintlar



1-TOM, 10-SON

parazitlik qilishi haqida ma'lumot beradi. Muallifning bu ma'lumotiga asosan, qo'ylarda yuqorida qayd qilingan 8 turdan tashqari 2 tur ezofagostomlar (*Oesofagostomum columbianum* va *O. venulosum*), 2 tur gangilonemalar (*Gangylonema seutatum* va *G. verrucosum*) yana 2 yangi tur monieziyalar (*Moniezia alba*, *M. denticulata*), 2 tur sintetokauluslar (*Synthetocaulus rufescens*, *S. capillaris*), bir turdan xabertiya (*Chabertin ovina*), bunostom (*Bunostomum trygonocephalum*), trixostrogilyus (*Trichostrongylus retortaeformis*), nematodirus (*Nematodirus filicollis*) va tizanieziya (*Thysanieza ovilla*)lar parazitlik qilishi aniqlangan.

5-Rossiya gelmintologik ekspeditsiya (1921) jarayonida 6 bosh qo'ylarni Toshkent shahrida, 1 bosh – Sirdaryoda, 2 boshdan Chorju va Marvda (hozirgi Mari), jami 11 bosh qo'ylarni to'liq gelmintologik yorish usuli bilan tekshirganda ularning gelmintofaunasi 22 tur gelmintlardan tashkil topishi haqida ma'lumot olingan.

Qashqadaryo viloyatidagi "Koson" qorako'lchilik xo'jaligida 70 bosh turli yoshdagi qo'ylarni To'liq Gelmintologik Yorish (TGYo) usuli bilan tekshirib, 26 xil (tur) gelmintlarni aniqlangan [4; 79-85-b].

Samarqand viloyatida, qorako'l qo'ylarning asosiy gelmintozlari va ularning epizootologiyasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, qorako'l qo'ylarning gelmintofaunasi 3 sinfga mansub 33 tur gelmintlardan iborat bo'lib, ular orasida trematodalardan fassiola va dikrotseliyalar, nematodalardan diktikaula, gemonx, xabertiya, ostertagiya va ezofagoastomlar chaqiradigan kasalliklar asosiy gelmintozlar qatoriga kiradi.

K.I.Skryabinning TGYo usuli bilan tekshirilgan 59 bosh qo'ylarning 42 foizi *Fasciola hepatica* va *F. gigantica* bilan zararlanganligi, ulardan *F. hepatica* tez-tez uchraydigan va keng tarqalgan bo'lib, *F. gigantica* turi esa kam va chegaralangan miqdorda uchrashi aniqlangan [37; 183-b].

Narpay tumanida 28,48% qo'ylar, jumladan 31,2% ona qo'ylar va 10,6% bir yoshgacha bo'lgan qo'zilar fassiolar bilan zararlanganligi aniqlagan [65; 14-b].

O'zbekiston gelmintologiya fanining asoschisi professor N.V.Badanin respublikamiz iqlim sharoitini hisobga olib, gelmintozlarning mavsumiy dinamikasini o'rganishda yil fasllarini quyidagi muddatlarga bo'lishni taklif etadi: qish fasli 16 dekabr dan 15 martgacha; bahor fasli 16 martdan 30 aprelgacha; yoz fasli 1 maydan 31 avgustgacha; kuz fasli 1 sentabrdan 15 dekabrgacha.[33; 3-21-b].

Gelmintozlar epizootologiyasini o'rganishda N.V.Badanin taklif etgan yil fasllari undan keyingi gelmintolog-tadqiqotchilar (I.X.Irgashev, Sh.Azimov, B.S.Salimov, A.O.Oripov va ularning hamkasblari) tomonidan qo'llanilib kelinmoqda.



1-TOM, 10-SON

O'zbekistonning tog'-tog'oldi va cho'l-yaylov mintaqalarida qo'ylarning asosiy geogelmintozlarini o'rgangan mualliflar [8;153-154-b], bunday gelmintozlar qatoriga gemonxoz, ostertagioz, xabertioz, nematodiroz va strongiloidoz kirishi, gemonx va xabertiyalar kuchli patogen ta'sir etuvchi gelmintlar, ostertagiya va marshallagiyalarning patogen xususiyatlari "faqat gemonx va xabertiyalar bilan birgalikda uchraganda namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi.

Gelmintlardan xoli (agelmintoz) qo'zilarini marshallagiyalar, gemonx va nematodiruslarning invazion lichinkalari bilan sun'iy zararlantirib chuqur eksperimental tajribalar olib borgan muallif [56; 248-252-b; 57;] turli xil trixostrogilidlarning qo'y organizmiga patogen ta'sirini o'rganib gelmintlarning, jumladan trixostrogilidlarning hayvon organizmiga patogen ta'siri eng avvalo invaziyaning intensivligi, gelmintlarning organizmda rivojlanish davri va boshqa bir qator omillarga bog'liq ekanligini aniqlagan. Jumladan, muallifning ta'kidlashicha "marshallagiyalar qo'y organizmiga juda qattiq patogen ta'sir ko'rsatadi va ularning eng kuchli patogen ta'sir etishi gelmintlarning preimaginal rivojlanish davriga to'g'ri kelgan".

O'zbekistonda qo'ychilikning asosiy qismini qorako'l qo'ylari tashkil qilishini hisobga olib, aynan qorako'l qo'ylarining gelmintlari va gelmintozlari bo'yicha keng-ko'lamlari, tadqiqotlar olib borgan, muallif [35; 249-257-b; 36; 137-144-b] qorako'l qo'ylar gelmintlarini ularning epizootologik va epidemiologik ahamiyatiga qarab ikki "kategoriyaga" (darajaga) bo'lgan.

1. Birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan va tez yo'qotilishi zarur bo'lgan gelmintlar:

a) barcha mintaqalar (zona)larda keng tarqalgan, chorva mollari va inson uchun xavfli gelmintlar: exinokokk va senurlar;

b) qo'ylar orasida keng tarqalgan, ularning mahsuldorligini pasaytiradigan yoki hayvonlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladigan gelmintlar. Bu guruhga, muallifning fikriga ko'ra, monieziya, tizanieziya, marshallagiya, gemonxus, nematodirus, xabertiya va diktiokauyuslar kiradi va bu gelmintlar bilan ularni mintaqaviy tarqalishi va mavsumiy dinamikasini hisobga olgan holda kurash olib borish lozim;

v) ma'lum mintaqalarda tarqalgan, hayvonlar patologiyasida ma'lum ahamiyatga ega va katta iqtisodiy zarar yetkazadigan gelmintlar. "Bu gelmintlarga fassiola, dikrotseliya, avitellina, bunostom va trixotsefallar kiradi deb, bu gelmintlarni 3-5 yilda yo'qotish lozim" deb ta'kidlaydi muallif.



**1-TOM, 10-SON
XULOSALAR**

1. Kaprologik tekshirish natijalariga ko'ra, Toshkent viloyatining tog'li va qo'ychilik rivojlangan Ohangoron, Bo'stonliq va Parkent tumanlarida qo'ylar 80 foizgacha turli gelmintlar bilan zararlangan. Zararlangan qo'ylar orasida nematodiruslar qariyb 50 foizni, marshallagiyalar va boshqa oshqozon ichak strongilyatlari 18-19 foizni tashkil etadi.

2. Dag'al junli go'sht yo'nalishidagi mahalliy zotli qo'ylarda 12 foiz marshallagiyalar, 31,8 foiz nematodiruslar va 15,3 foiz boshqa oshqozon ichak strongilyatlar qayd etildi.

3. Tekshirilgan mayin jun beruvchi merinos zotli qo'ylarning marshallagiyalar bilan 28,8 foiz, nematodiruslar bilan 44,4 foiz va boshqa oshqozon ichak strongilyatlari bilan esa 26,6 foiz zararlangan. Shuning bilan birga **merinos zotli** qo'ylar fassiolar bilan 17,7 foiz zararlangan bo'lsa, mahalliy zotli qo'ylar 3,2 foiz zararlanganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov Sh.A. Epizootologiya anoplotsefalyatozov melkogo rogatogo skota v usloviyax UzSSR. //Mat-ly n.konf. VOG, ch.1, M., 1963.

2. Abduraxmanov T.A., Do'stova R.T., Oripov A.O., Mukumov X. Dinamika izmeneniy nekotoryx mikroelementov v krovi pri eksperimentalnyx geogelmintozax oves i koz.// Borba s infek. i invaz. bolezniyami s/x j-x. Samarkand, 1972. S. 75-76.

3. Azimov Dj. Vyyavlenie glavneyshix gelmintozov u oves v Surxandarinskoy oblasti Uzbekistana.//Tez.dokl.nauchn.konf.VOG ANSSR, ch.1, 1962. S.9.

4. Azimov D.A. Gelminty oves yuga Uzbekistana i dinamika glavneyshix gelmintov. // Avtoref. kand. diss., M., VIGIS, 1963. S19.

5. Azimov D.A., Dadaev S.D., Akramova F.O., Saparov K.A. Gelminty jvachnyx jivotnyx Uzbekistana. Tashkent, 2015. S.152.

6. Azimov Sh.A., Xaitov R.X. Sezonnaya dinamika anoplotsefalyatozov oves i megy borby s nimi v usloviyax Uzbekskoy SSR. //Tr. UzNIVI, t.16, 1964. S. 153-154.

